

**ЛУЧШИЕ
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



международном научно-образовательном
электронном журнале

**ЧАСТЬ-21
ТОМ-6
05/2024**



OPEN  ACCESS



ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

международный научный электронный журнал

ЧАСТЬ-21 ТОМ-6

Май - 2024 год





DUTOR CHOLG‘USINING KELIB CHIQISH TARIXI VA UNING ANSAMBDAGI O‘RNI

*Shukurjonova Xusnora Farhod qizi,
Erkinova Shohsanam Sharifjon qizi,
Guliston Davlat Universiteti o‘qituvchisi,
Guliston Davlat Universiteti
“Xalq cholg‘ularida ijrochilik”
ta’lim yo‘nalishi 3 – bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Xusnora Shukurjonova
Guliston Davlat Universiteti, o‘qituvchi
Email: xusnorashukurjonova8@gmail.com
Tel: 99 870-98-24*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq cholg‘usi dutorning kelib chiqish tarixi, orkestr va ansambl ijrochiligidagi o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

Annotation: This article provides information about the history of the Uzbek folk instrument dutor, its role in orchestra and ensemble performance.

Аннотация: В данной статье представлена информация об истории узбекского народного инструмента-дудора, его роли в оркестровом и ансамблевом исполнении.

Kalit so‘zlar: Cholg‘u ijrochiligi, ijrochi sozandalar, kuylar, orkestr va ansambl.

Key words: Instrumental performance, performing musicians, tunes, orchestra and ensemble.

Ключевые слова: Инструментальное исполнение, музыканты-исполнители, мелодии, оркестр и ансамбль.

Dutor cholg‘usi Markaziy Osiyoda keng tarqalgan milliy cholg‘u hisoblanadi. Bu cholg‘u nafaqat o‘zbek xalqi, balki qardosh tojik, uyg‘ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalib, o‘zlarining sevimli cholg‘ulari deb hisoblashadi. Dutorga o‘xshash bo‘lgan cholg‘ularni Ozarbayjonda “Saz”, Gruzinlarda “Panduri”, Qirg‘izlarda “Komus”, Qozoqlarda “Dombra” va Xitoyliklarda “Pipa” nomlari bilan qo‘llanilib kelgan. Dutor torli chertma cholg‘u guruhiga kiradi. O‘zbek xalqining dutor cholg‘usi muloyim, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi.

“Xalq orasida dutor “dilkash cholg‘u” nomini olgan. Unda ijro etilgan har qanday kuy ohang qalb torlarini tebratadi. Chunki bu nola qalb istagan ohangdir. Shuning uchun



dutor ayollarimiz qo‘lida hasrat quroli, dil izhorini namoyish etish uchun hamroh bo‘lgan ko‘ngil oshnosidir”.¹

Dutor haqidagi dastlabki ma‘lumotlarni Navoiyning zamondoshi Zaynulobiddin al-Husayniyning “Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari” nomli risolasi (XVI bobi) da uchratamiz. XVI-XVII asrlard “Dutoriy” taxallusi bilan ijod qilgan (Hirotlik Yusuf Mavdudiy Dutoriy, Mashxadlik Mirquliy Dutoriy kabi) sozandalarning nomlari manbaalarda saqlangan. Dutor cholg‘usi asosan tut, o‘rik, yong‘oq daraxt yog‘ochlaridan yasaladi. U katta noksimon shakldagi qovurg‘ali kosa, yog‘och deka va uzun ichak pardalar bilan bog‘langan dastadan iborat, kosa bilan dastani birlashtiruvchi qism esa yong‘oq daraxtidan yasaladi. Qadimda dutorlar ham boshqa yog‘ochdan yasaladigan cholg‘ular kabi o‘yma ravishda ishlangan. Buxoro, Xiva va Qoraqalpog‘istonda ikki qovurg‘ali, Samarqandda to‘rt qovurg‘ali, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlarda o‘n-o‘n ikki qovurg‘ali dutorlarni uchratish mumkin. Qovurg‘a choklari esa ingichka suyak yoki yog‘och piltalar ya‘ni chiziqlar bilan berkitilgan. “Mazkur cholg‘u 1948-yili Usta Usmon Zufarov tomonidan yasalgan. Uning kosasi 10 dona qovurg‘adan iborat bo‘lib, choklari suyak piltalar bilan berkitilgan. Dastasi va bosh qismi sadaf va suyakdan ishlangan naqshlar bilan bezatilgan. Bo‘g‘zi o‘yma ravishda ishlangan bo‘lib, unga yog‘och o‘ymakorlik san‘ati orqali gul va bulbul tasviri tushirilgan. Qopqog‘ida 14 dona sadolantiruvchi o‘yiqalar mavjud. Dutor og‘irligi 850 gr, uzunligi 1200 mm, kosa kengligi 210 mm². Dutor cholg‘usining torlari ipak iplaridan eshiladi. Ular Tanovar sozi (kvartaga), Munojot sozi (kvintaga), Qo‘shkor sozi (unisonga) sozlanib ijro qilinadi.

Dutorda va dutor jo‘rligida ijro etilgan qo‘shiq, ashula va kuylarning ohanglari zamirida sharq mumtoz adabiyotining namoyandalari Lutfiy, Navoiy, Atoiy, Bobur shuningdek, Zebunniso, Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Ojiza va boshqalarning ijodidan rang olgan lirik falsafiy mazmun yotadi³.

Dutor sozining professional ijrochilik amaliyotidagi o‘rni juda katta va bu jarayonda cholg‘uning jahon musiqa namunalari ijrochiligi bilan harakterlanadi. Ayniqsa Sharq va Ovrupa kompozitorlarining asarlari dutor ijrochiligida yanada joziba va ma‘no anglatadi. Chunki Orif Qosimov, Doni Zokirov, G‘ofur Qodirov, Xamid Raximov, Mardon Nasimov, Mustafu Bafoev, Qahramon Komilov, Abdusaid Nabiev, Alisher Rasulov kabi o‘zbek bastakorlari va kompozitorlarining dutor cholg‘usi uchun zamonaviy uslubda yaratgan asarlari ijrochilik amaliyotida o‘z o‘rnini topishga

¹ Lutfullayev.I. Dutor alt uchun moslashtirgan asarlar. (O‘rta maxsus va kasb hunar ta‘lim muassasalari o‘quvchilari uchun to‘plam), Faylasuflar T.; 2015

² Cholg‘u asboblari haqida ma‘lumot. Musiqa asboblari Tanbur, Dutor va Soz haqida ma‘lumot.)

³ J.Rasultoev. “O‘zbek dutor ijrochiligi” T.; “O‘qituvchi”1997



ulgurgan. Musiqa ijrochiligi amaliyotida dutor cholgʻu ijrosini maromiga yetkazib ijod qilgan, ustozlik darajasida faoliyat olib borgan bir qancha sanʼatkorlar ijod qilib oʻtgan. Ulardan Zohidjon Obidov, Faxriddin Sodiqov, Mahmud Yunusov, Orif Qosimov, Gʻulom Qoʻchqorov kabi ustoz sanʼatkorlar mavjud. Oʻzbekistonda dutor cholgʻusini yasovchi taniqli marhum ustalardan Usta Usmon Zufarov, Zirojiddin Muhiddinovlarni hamda hozirgi kunda ijod qilayotgan Abdunabi Abdugʻofurovlarni aytish mumkin. Oʻzbekistonda mashhur sozandalardan Orif Qosimov, Turgʻun Alimatov, Gʻulom Qoʻchqorov, Roʻzibibi Xadjayeva, Usta Usmon Zufarov, Malika Ziyayeva, Boqijon Raximjonov, Sulton Qosimov, Gulchehra Muhammedova kabi mohir sozandalar dutorni xalqimiz ichida sevimli va ommaviy boʻlishiga katta hissa qoʻshganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilyos Lutfullayev “Dutor alt uchun moslashtirilgan asarlar” (Oʻrta maxsus va kasb hunar taʼlim muassasalari oʻquvchilari uchun toʻplam) T., 2015
2. J.Rasultoev “Oʻzbek dutor ijrochiligi” T., 1997
3. Shavkat Rahimov “Dutor” (Musiqa va sanʼat maktablari uchun oʻquv qoʻllanma) T., 2004.
4. G.Muhammedova “Dutor” (Musiqa va sanʼat maktablari uchun oʻquv qoʻllanma)



DUTORLAR OILASI VA IJRO USLUBLARI

*Shukurjonova Xusnora Farhod qizi,
Xabibullayeva Mubina qizi,
Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi,
Guliston Davlat Universiteti
"Xalq cholg'ularida ijrochilik"
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Xusnora Shukurjonova
Guliston Davlat Universiteti, o'qituvchi
Email: xusnorashukurjonova8@gmail.com
Tel: 99 870-98-24*

Annotatsiya: Dutor cholg'usi Markaziy Osiyoda keng tarqalgan cholg'u hisoblanadi. Ushbu maqolada dutorlarlar oilasi va ularning ijro uslublari haqida ma'lumot berilgan.

Annotation: Dutor instrument is a widely used instrument in Central Asia. This article provides information about the dutor family and their performance methods.

Аннотация: Инструмент Дутора – широко используемый инструмент в Центральной Азии. В этой статье представлена информация о семействе дуторов и методах их работы.

Kalit so'zlar: Dutor cholg'usi, oilasi, tuzilishi, shtrixlar, ijrochilik, applikatura, dombra, zarb.

Keywords: dutor instrument, family, structure, bars, execution, applicature.

Dutor cholg'usi Markaziy Osiyoda keng tarqalgan cholg'u hisoblanadi. Dutor cholg'usi chertib chalinadigon torli asboblar sirasiga kiradi va o'zining muloyim ovozi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Dutor haqidagi dastlabki ma'lumotlar Mavlono Zaynulobiddin al-Xusaynining Alisher Navoiyga bag'ishlangan "Musiqiy ilm va Amaliyot qonuni" risolasida uchramiz. Dutorga o'xshash bo'lgan cholg'ularni Ozarbayjonda "Saz", Gruznlarda "Panduri", Qirg'izlarda "Komus", Qozoqlarda "Do'mbra" va Xitoyliklarda "Pipa" deb nomlanadi. Shuningdek dutor oilasi 6 turga bõlinadi:

- 1.Prima
- 2.Sekunda
- 3.Alt



- 4.Tenor
- 5.Bas
- 6.Kontrabas

Prima - dutorning kichraytirilgan bir turi hisoblanadi. Buning qopqog‘i tut o‘rnida archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlari o‘rniga ichak tor tortiladi. Pardalar dastasini oyib xromatik holda doimiy o‘rnatilgan. Torlari kvarta va unisonga sozlanadi. Birinchi oktavadagi “mi va lya” ga sozlanib, notalar skripka kalitida yoziladi. Notalar eshitishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. Hajmi kichik oktavadagi mi-lyadan birinchi oktavadagi sol va ikkinchi oktavadagi do ga qadar.

Applikatura jihatidan rubob prima, g‘ijjak asboblariga o‘xshab ijro etiladi. Masalan pissikato, bidratma, stakatto, va hokazo. Dutor primaning umumiy ovoz hajmi birinchi oktavadagi mi tovushidan uchinchi oktavadagi lya tovushiga qadar bo‘lib, orkestrda solo va jo‘rnavor bilan ijro etiladi.

Dutor sekunda - yangi ishlangan dutorlar oilasiga mansub cholg‘u, ovoz jihatidan o‘rtacha registrda, uning ham torlari ikki ipak tordan iborat bo‘lib, kavarta oralig‘ida sozlanadi. Tashqi ko‘rinishi dutor primadan bir oz kattaroq qilib ishlangan, ya‘ni dutorlarning kosasi bir xil, lekin dastasining uzunligi har xil ishlangan. Lya va re ga sozlanib, umumiy ovoz hajmi kichik oktavadagi lya tovushidan ikkinchi oktava re tovushigacha sozlanadi.

Dutor alt – “Dutor” atamasi forscha bo‘lib, “du” - ikki va “tor” ma’nolarini bildiradi.¹ Ijrochining o‘ng qo‘li barmoqlari dutor torlarini cherish orqali musiqiy tovushni xosil qiladi. Chap qo‘l barmoqlari bilan esa tovush pardalari boshqariladi.

Boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi, o‘zbeklarda ham turli hududlarning mahalliy sheva guruhlarida dutorning tarkibiy qismini tashkil qiluvchi atamalar turlicha ifodalaniladi. Uning ayrim qismlarining nomlari maxsus tub ma’noga ega. Masalan “Quloq”, “Xarrak”, “Kosaxona” va h.k. atamalarda ana shunday ma’no mavjud.

Dutor kvarta - kvintaga, oktava va unisonga ham sozlanadi. Dutorlar to‘qqiz tuzilishga ega:

- 1.Dastasi
- 2.Kosasi
- 3.Asosiy harrak
- 4.Shayton harrak
- 5.Quloqlari
- 6.Pardalari
- 7.Tiqn ya‘ni simni ko‘rsatuvchi
- 8.Ovoz joyi



9. Simlari ya'ni lya va mi

Dutor an'anaviy cholg'ular orasida turli va rang barang zarblarga boy, nafis va nazokatli, falsafiy ovozga boyligi bilan ham ajralib turadi. Shuningdek dutorda quyidagi shtrixlar kop qo'llaniladi:

Yakka zarb - oddiy zarblardan biridir. Sozanda dutorni dastlabki o'rganish davrida o'ng qo'lda quyidagi belgilar asosida П- (pastga) va V- (yuqoriga) zarblar asosida ochiq torda harakatlantiriladi.

П - (pastga) harakat belgisini bildiradi, bunda bosh barmoqdan tashqari barcha barmoqlar pastga harakatlanadi.

V - (yuqoriga) harakat belgisi, bosh barmoq pastdan yuqoriga harakatlanadi, bunda bosh barmoqqa qolgan to'rtta barmoq yig'ilgan holatda qo'yilib, birga harakatlanadi.

Yuqoriga zarb - pastdan yuqoriga bosh barmoq bilan uriladi. Zarb kuchli chiqishi uchun bosh barmoq tagidan ko'rsatkich va o'rta barmoqlar itarib chiqaradi. Bu zarb B (bosh barmoq) belgisi bilan belgilanadi.

Terma zarb - (Tanovar zarbi) dutor ijrochiligida keng qo'llaniladigan zarblardan hisoblanadi. Asosan bosh va ko'rsatkich barmoqlar ishtirokida amalga oshiriladi. Zarb yuqoridan pastga urila boshlaganda avval ko'rsatkich barmoq keyin esa bosh barmoq torni urib pastga harakat amalga oshiriladi. Bu zarb notada "k" belgisi bilan ko'rsatilgan.

"Tremolo – italyan tilidan – tremolo – titrab turuvchi, titrab turish ma'nosini bildiladi"¹. Ushbu zarbni maromiga yetkazib ijro etish uchun ijrochidan ancha mehnat va qunt talab qilinadi. Tremolo – bilak yordamida ko'rsatkich barmoqni pastga va tepaga torlarni tez va uzluksiz chertishdan hosil bo'ladi. Ushbu zarbni yozuvda ifodalash uchun, notalarning yuqori qismiga "tremolo" yoki "trem." so'zlari yoziladi. Asar ijrosida tremoloning sifati zarbning bir tekis ijro etilishiga bog'liqdir.

Teskari zarb – dutor ijrochiligida eng ko'p ijro etiladigan zarblardan biri. Ushbu zarbning o'nlab xilma – xil ko'rinishlarini ijro qilish mumkin. Bu ijrociga bog'liq. Ushbu zarb o'ng qo'l bilagi bilan pastga, bosh barmoq bilan yuqoriga, ko'rsatkich barmoq bilan ham yuqoriga, bilak bilan pastga, bosh barmoq bilan yuqoriga, ko'rsatkich barmoq bilan ham yuqoriga, bilak bilan pastga, bosh barmoq bilan yuqoriga ijro etish orqali hosil bo'ladi. Bunda o'ng qo'lning yo'nalishi "IVVIIIVVIIV" ko'rinishida belgilanadi. Barmoqlar esa notaning pastki qismiga quyidagicha yozib qo'yiladi: "p.b.k.p.b.k.p.k".

Dutorda o'ng qo'l texnikasini o'stirishda terma zarb, teskari zarb, rezlarni o'rni beqiyosdir, sababi ularning har biri o'zgacha ijro qilinadi. Ushbu zarblarda bevosita

¹ Akbarov I. Musiqa lug'ati, "G'.G'ulom" nashriyoti, 1987., 358- bet



ko'rsatkich va bosh bormoqlar qatnashadi, bilak esa yordam beradi. Bunda bilakning bir maromda yumshoq, erkin harakatlanishi ta'minlansa, turli xildagi asosiy zarblarni amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilyos Lutfullayev "Dutor alt uchun moslashtirilgan asarlar" (O'rta maxsus va kasb hunar ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun to'plam) T., 2015
2. J.Rasultoev "O'zbek dutor ijrochiligi" T., 1997
3. Shavkat Rahimov "Dutor" (Musiq va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma) T., 2004.
4. G.Muhammedova "Dutor" (Musiq va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma)



INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA YETIMLIK MOTIVI TALQINI

Yuldasheva Iroda Farxatovna

f.f.f.d.dotsent, Buxoro Davlat Universiteti

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub ertaklarning bir-biriga nisbatan farqli va o'xshash jihatlari aks etgan. Bundan tashqari bu farqlar to'g'risida vir necha olimlarning fikrlari ham o'z namunasini topgan.

Kalit so'zlar: ertak, janr, folklore, farzand, jmiyat, falsafa, xalq, yaxshilik, yomonlik.

Abstract: This article reflects the differences and similarities of English and Uzbek folktales. In addition, the opinions of several scientists about these differences have also found their example.

Key words: fairy tale, genre, folklore, child, society, philosophy, people, good, evil

KIRISH

Bilamizki, ertaklar o'z-o'zidan paydo bo'lgan janr emas. Ularni asrlar davomida xalq og'zaki ijodi sifatida bizga qolgan meros hisoblanadi. Ertakning paydo bo'lishida xalqlar orasidagi qadimiy urf-odat va an'analar muhim o'rin tutadi. Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimiy namunalaridan biri hisoblanadi va bu janr og'izdan – og'izga o'tish usuli orqali xalqlar o'rtasida ajdoddan avlodga o'tib kelgan. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi olimlarning ta'kidlashicha, dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bir-biriga yaqin turgan janr bu – ertakdir.[1.2-jild.]

Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va xayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikoyalarni ertak deb ataymiz. O'zbeklarda ertak aytuvchilar "ertakchi", "matalchi" deb atalgan.[1. 2-jild] E'tibor beradigan bo'lsak, ertaklarda ijobiy qahramon yovuzlik, adolatsizlikka qarshi kurashib g'alaba qozonadi. Chunki ertaklarning zamirida inson tarbiyasini shakllantirish va xalq orzu-umidlari, manfaatlari turgan bo'ladi. Har bir ertak mutolasi insonga qanchadan-qancha zavq-shavq beradi., uni komillikkka yetaklaydi, dunyoqarashini o'zgarishiga sababchi bo'ladi. Shu bois, mo'jizalar olamiga yo'l- ertaklar o'qishdan boshlanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shubhasiz go'zal, g'aroyib, bepayon hayol va aql olamiga qadam ertaklar yordamida qo'yiladi.

Ertaklarning tarbiyaviy jihatdan o'rni beqiyosdir. Chunki ular bolalarni sog'lom muhitda o'sib unishlari uchun imkoniyat yaratib beradi va to'g'ri yo'lga boshlaydi. Shu



o'rinda V.G.Gusev tomonidan fikrlarni eslatib o'tishimiz lozim deb o'ylayman. Uning fikricha, "Jamiyatda umuman inson tabiatidagi illatlar real hayotda o'z aksini topmagach, fantastik tarzda ertaklarda o'z yechimiga ega bo'ladi.[2.208-bet]" Binobarin, biz o'z farzandlarimizga ertak aytib berish orqali ularni kelajakda barkamol avlod bo'lib yetishishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Muhokama va natijalar

Asrlar o'tishi bilan olimlar ertaklarni tuzilishi va ma'no mazmuniga ko'ra turli xil guruhlarga ajratishdi.[1. 2-jild] Bunga misol qilib, hayvonlar haqidagi ertaklar, hayotiy ertaklar, sehrli ertaklar va hajviy ertaklarni misol qilishimiz mumkin.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning mazmuni majoziy ya'ni, kochma ma'noda bo'ladi. Olimlar haqli ravishda ilmiy tasavvurlarni rivojlanishida, falsafaning, adabiyotning, me'morchilik, musiqa va teatr san'atlarining paydo bo'lishida miflar o'ziga xos manba bo'lib xizmat qilgan, deb ta'kidlashadi.[3.4-nashr.] Eng qadimgi ertaklarda xalqlarning urf-odatlarini, an'analari, marosimlari aks etgan.

Inglizlarda Angliya eng mashhur bolalar ertaklarining vatani bo'lgan. Folklor hikoyalarida boshqa Yevropa mamlakatlariga o'xshab, ingliz ertak an'anasi Britaniya orollarida paydo bo'lgan deb hisoblangan. Bu folklor asrlar davomida hikoya qilish an'analari orqali rivojlangan va mamlakatning turli mintaqalarida o'ziga xos madaniyati bilan noyob hisoblanadi. Shunday qilib, Angliyaning ertak va folklor an'analari, german va nasroniy manbalari bilan mustahkam aloqaga ega. [4.97-102 betlar]

Men, ushbu maqolam orqali o'zbek xalqining mashhur ertaklaridan biri bo'lgan "Podachining qizi" ertagi bilan ingliz xalqining eng mashhur ertaklari qatoriga kirgan "Cindrella" ertagini bir biriga qiyoslab bermoqchiman.

"Podachining qizi" ertagidagi podachining qizi ijobiy qahramon sifatida qatnashadi. U juda ham sabr toqatli, maftunkor va mehnatkash qiz sifatida o'zbek xalqi orasida mashhur. O'gay opasi esa dangasa, ishyoqmas, yalqovlik bo'yicha ertak qahramonlariga aylangan. Ming afsuski, podachining qiziga har kuni o'gay onasi va o'gay opasi kun bermas, unga tinimsiz ish qildirar va ubning ustidan mazah qilib kulishardi.

"Cindrella" ertagida ham Cindrella ijobiy qahramon sifatida qatnashadi. U ham ertakda o'gay qiz sifatida qatnashadi.

Ingliz va o'zbek o'gay qiz turkumli ertaklarning asosiy o'xshashligi shundaki, ikkala millat ertaklarida ham asosiy funksiyasi to'rt xil bo'lgan personajlar ishtirok etadi. Bular - o'gay qiz, raqib personaj - o'gay ona, "Cindrella" da sehrli vositalar bilan ta'minlovchi sehrgar pari qatnashsa, "Podachining qizi" da mehribon momo timsollarida namoyon bo'ladi. "Podachining qizi" va "Cindrella" ertaklarini taqqoslaydigan bo'lsak,



ikkalasida ham mushtarak g'oya ya'ni, o'gay qiz ezgulik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Podachining qizi va Cinderella obrazlarining ertakdagi asosiy vazifalari o'gaylik va adolatsizlik, yovuzlik va insofsizlikka qarshi chiqishi bilan belgilanadi. Ikki xalq qahramoni ham odobli, o'ta haqqo'y, qat'iyatli, adolatparvar, mehnatsevar, garchi o'gay ona tazyiqi bilan munгли hayot kechirayotgan bo'lsalarda, kelajakka ishonch ruhi bilan yo'g'rilgan pokiza qalb egasi. O'gay qizni tahqirlash turli ertaklarda turli xil tasvirlanadi. "Cinderella" bu hol o'gay qizni og'ir ish bilan band qilib qo'yish bilan boshlansa: "They took her pretty clothes away from her, put an old grey bedgown on her, and gave her wooden shoes. There she had to do hard work from morning till night, get up before daybreak, carry water, light fires, cook and wash"

"Podachining qizi" ertagida nuroniy va oqila momo bosh qahramonni sinash va yordam ko'rsatish kabi vazifalarni ado etadi. "Cinderella" da esa pari sehrli kuchlar vositasida o'gay qizga yordam qo'lini cho'zadi. Shuni aytish kerakki, "Cinderella" dagi pari sehrni ishga solib yordam qo'lini cho'zsa, "Podachining qizi" dagi momo aql zakovatni ishlatgan holda qahramonga ko'maklashadi ayni vaqtda do'stlik hamda hamkorlik timsoli sifatida yordam ko'rsatish kabi vazifalarni ado etadi, eng muhimi yovuzlikni qoralab yaxshilik yo'lida turgan kishilarni rag'batlantirish yo'li bilan adolatni qaror toptiradi. Ikkala ertaklarda ham yordamchi personajlar bo'lib, unda asosan tabiat bo'lagi bo'lmish hayvonot olami vakillari qatnashadilar.

Ikki xalq ertaklariga bo'lgan yana bir o'ziga xoslik shundaki, ertaklar tabiat sehrli voqealar ko'lamini bo'rttiradi, jonlantiradi. Bu xil elementlar yetakchi obraz tabiatdagi ichki kechinmalarni belgilaydi. Aytish joizki, o'gay qiz turkumidagi ertaklar o'ziga xos xususiyati, nasihatomez motivlari g'oyalari bilan ajralib turadi. Yana ikki ertakdagi o'xshashliklardan biri shuki, bosh qahramon ideallashtirilib olinadi, bir vaqtning o'zida ideallashtirish bilan birga zulm zo'rlik qoralanadi, bu orqali o'quvchilarni ezgulik sari yetaklashga harakat qilinadi.

Xulosa

E'tibor beradigan bo'lsak, ikkala ertakda ham bir-biriga o'xshash jarayonlar mavjud. Lekin bu ertaklar bir-biridan turli xalqlarga tegishliligi bilan farq qiladi. O'xshash jihatlaridan yana biri, bu ikki qiz bir xil sharoitda ya'ni o'gay on ava o'gay opalar qo'lida azoblanganliklari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ikkala qiz ham bu qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan chidaganliklari ularning yuksak matonatlaridan dalolatdir. Shu qiyinchiliklarga qaramay, bu ikki qizning o'gay onalari va o'gay opalariga bo'lgan munosabatlari samimiyligicha qolaveradi. Bunday holatlar har bir qiz farzandga o'rnak qilib ko'rsatish uchun arziydi. Bunga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, bu ikki ertakda ham sehrigar ayol obrazi mavjudligi va qizlarga qiyin



vaziyatlarda yordam berganliklari ertakning jozibadorligini oshirishga sabab bo'lgan. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ertaklar har bir bolaning nafaqat dunyoqarashini yuksaltirishga, balki mittigina murg'ak qalbini ezgulik bilan to'ldirishga ham xizmat qiluvchi yengilmas kuch hisoblanadi.[5]

References:

1. O'zbek xalq ertaklari. 2-jild. T-O'zbekiston Davlat nashriyoti. 1963
2. V.A.Maslova. "Lingvokulturologiya uchebnoye posobiye dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy. M.Akademiya "2001. 208s
3. V.A.Maslova "Lingvokulturologiya uchebnoye posobiye" 4-ye. Izd. M.2010
4. Kurguznekova. J.V. "Konseptualizatsiya jenskoy krasoti v angliyskoy yazikovoy kulture" Vestnik Rossiyskogo universiteta drajba narodov. 2016. Stranitsa 79-102
5. Fayllar.org. "Zumrad va Qimmat " hamda "Cindrella" ertaklari qiyosiy tipologiyasi
6. Karomat Kulmatova "Ingliz va o'zbek xalq ertaklarining o'xshash va farqli jihatlari" Maqola. Farg'ona shahar 10-IDUM ingliz tili o'qituvchisi



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINI YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Nodira Sattarova Oblanazarovna
Andijon viloyati Andijon tumani 44-umumiy
o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Axborot-psixologik xavfsizlik muammosi tarixan har qanday davlatning shakllanishi va jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlar va ularning mafkuraviy sohada ifodalanishi bilan vujudga keladi. Zotan, ana shu vaqtdan barqarorlik, rivojlanish bilan birga muayyan xarakterdagi informatsion-psixologik xavf-xatar, ma'naviy tahdidlar ham paydo bo'ladi. Mazkur maqolada axborot xavfsizligi tushunchasi, uning mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot, axborot-psixologik xavfsizlik, sivilizatsiya, axborot huruji, destruktiv g'oya, axborot sektori

KIRISH

Axborot tushunchasi bugungi kunda global ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u tafakkurimizga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, hayot va undagi minglab taqdirnlarni u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli qurolga aylandi. Umuman olganda, axborot – moddiy dunyoning organizmda yoki organizmlar jamoasida aks etgan hamda ular tomonidan atrof-muhit o'zgarishlariga moslashish uchun foydalaniladigan moddiy dunyo obyektlarining aksidir. Qachonlardir ilohiy ma'no kasb etgan so'z, uning qudrati bugungi kunga kelib, dunyo taqdirini hal qilishda eng asosiy rol o'ynaydigan kuchli vosita maqomiga ko'tarildi. Fan-texnika inqilobidan keyin kommunikatsion texnologiyalar hamda axborot infratuzilmalarining katta tezlikdagi taraqqiyoti, xususan, internetning paydo bo'lishi hamda uning qisqa vaqt ichida ijtimoiy hayot tarziga chuqur kirib borishi axborotni eng qimmat mahsulotga aylantirdi. Darhaqiqat, globallashtirish va integratsiyalashuv sharoitida oltin, platina, javohirdan ko'ra ko'proq qiymatga ega bo'lgan - axborot jahon bozorida munosib joy oldi. Kim axborotga egalik qilsa, u dunyoni boshqaradi, qabilidagi fikrlarni bot-bot esga olinayotgani ham bejizga emas. Bundan 4-5 asr oldin jahonda yetakchilik qilish uchun qo'shin soni, qurol-yarog' arsenalini, hatto dengizdagi kemalar, umuman, harbiy salohiyatning ahamiyati katta edi.

Aslini olganda, axborot tushunchasi dunyoqarashni ifodalovchi barcha bilimlar sohasida qadimdan mavjud bo'lgan. Yalpi axborotlashtirilgan global tizimning dunyoga



kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga chambarchas bog‘ladi. O‘z navbatida, axborot olish, uni ishlash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvish tug‘dirayotganini ham alohida ta’kidlash joiz. Zero, eng so‘nggi avlod kompyuterlari har soniyada ikki milliardgacha vazifani bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo‘jizasi tufayli kishi yer yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalar ichida aloqa o‘rnatishi, o‘zini qiziqtirgan savollarga bir zumda javob topishi mumkin. Ana shu holatning o‘zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloqiyu meyorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, XXI asr sivilizatsiyasi axborot huruji, axborot-psixologik urushi qiyofasida o‘zini namoyon etmoqda.

Har bir fuqaro o‘z shaxsiy nuqtai nazari, qarashlari, ma‘naviy-ma‘rifiy, axloqiyruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko‘rsatadi. O‘z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o‘z aqli doirasida munosabat bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib, o‘ziga mos axborotni qabul qiladi, tahlil etadi. Mushohada va tahlillar asosida shaxsiy xulosasiga ega bo‘ladi. Natijada mazkur shaxs u yoki bu tarzdagi nuqtai nazarini shakllantiradi. Demak, har qanday axborotning mazmuni, mohiyati, ta‘sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da‘vat etishi bilan shaxs, jamiyat, davlat mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta‘sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda, milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda informatsion-psixologik xavfsizlikni ta‘minlashning roli yana ham oshadi. Atrofimizda fan va texnika taraqqiyoti va uni insonga bo‘lgan ta‘siri jamiyat va tabiatning tasiridan kuchli va ustun bo‘lib bormoqda. Insoniyat tomonidan to‘plangan va yaratilgan axborot hajmi kengaymoqda va har o‘n yillikda yanada kengayib borishi kuzatilmoqda, ammo inson miyasi va uni tashkil etadigan hujayralarning soni o‘zgarmagan, qolaversa ta‘limning davomiyligi ortib bormoqda va shuning o‘zi informatsion stress ortishi xavfini tug‘diradi. Miyaning o‘z imkoniyatlari axborotni qabul qilishi keng, axborot hajmini ortishi xafli, ammo qisqa muddatda katta hajmdagi axborotni qayta ishlash zaruriyati paydo bo‘lsa bu kuchli asab zo‘rqishini olib keladi va infarmatsion stressni keltirib chiqaradi, ya‘ni miyaga kirib turgan axborot hajmi va tezligi, bioiogik va ijtimoiy imkoniyatlarga to‘g‘ri kelmasligi ham infarmatsion stress yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bu yerda axborot hajmi bir omil bo‘lsa, ikkinchidan vaqt kamligi va unga shaxs motivatsiyasi ijtimoiy sabablar ham qo‘shilsa miyani o‘z o‘zini himoyalash mexanizmi ishlaymay qoladi, va inson o‘zini informatsion stresslardan muxofaza qila olmay qoladi. O‘smirlar bunday holatda eng zaif tasirchan guruh sifatida namoyon boladi. Axborot-



psixologik xavfsizlik, avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, informatsion-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta'sir etuvchi buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi. Qolaversa, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, destruktiv g'oyalar milliy xavsizlikka putur yetkazishi mumkin. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotgani shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi.

Axborotlashgan jamiyat kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatsion texnologiyalardan oqilona foydalanishga asoslangan sifatiy holatini tavsiflovchi tushuncha. Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilari ijtimoiy rivojlanishni "bosqichlar almashinuvi" nuqtai-nazaridan qaragan holda, uning shakllanishini qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo'lgan iqtisodiyotning to'rtinchi - "axborot sektori" yuzaga kelishi bilan bog'laydilar. Ularning fikriga ko'ra, industrial jamiyatning asosi bo'lgan kapital va mehnat axborotlashgan jamiyatda o'z o'rnini axborot va bilimga bo'shatib beradi.

O'zbekiston sharoitida axborot almashish jarayoni xavfsizligini ta'minlash uchun o'ylaymizki, axborot hurujlari sharoitida quyidagi vositalarga alohida e'tibor qaratish kerak: ya'ni axborotlashtirish vositalari faoliyatini, milliy o'zligimiz va manfaatlarimizga zamonaviy usullar orqali muvofiqlashtirish; shaxs axborot xavfsizligiga qarshi barcha zamonaviy vositalardan foydalanish; ichki va tashqi siyosatda ro'y berayotgan voqealarni yoritishda yangicha yondashuvlarni qo'llash; O'zbekistonning xalqaro aloqalarini tahlil qilish borasida tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish, islohotlarning axborot ta'minotini ta'minlash ishida matbuot va elektron ommaviy axborot vositalari harakatini birlashtirishga alohida e'tibor qaratish, barcha axboriy ta'sirlar doirasini nazoratga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazimov O. Ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyatini barpo etish omili. –Toshkent: Akademiya, 2008 98 b.
2. Kenjaboyev A.T. Axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. – Toshkent: Ibn-Sino, 2004. – 252 b.
3. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. /Uslubiy qo'llanma. Toshkent: Star – Poligraf. 2008



JAMIYATIMIZDA ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASHISHNING MUHIM MASALALARI

Xojamuratova Nasiba Abatbaevna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani MMTBga qarashli
6-sonli ayrim fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflari mavjud
umumiy o'rta ta'lim maktabining amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zo'ravonlik bilan bog'liq bo'lgan bugungi kundagi holatlar, ularning oldini olishga tezkor hodimlarning o'rni va olib borilayotgan islohotlar, ushbu jinoyatning kriminologik tavsifi, yoritilgan.

Kalit so'zlar: himoya qilish, ustuvor yo'nalish, shoshilinch ruhiy, og'irlik darajasi, anonim, sog'lig'i, qadr-qimmat.

Abstract: In this article, today's situations related to violence, the role of emergency workers in their prevention and the ongoing reforms, the criminological description of this crime are highlighted.

Keywords: protection, priority, urgent mental, severity, anonymous, health, dignity.

KIRISH

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks choratadbirlar, xususan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlarning 40 foizi, har to'rtta qotillikning bittasi, qasddan badanga shikast yetkazishlarning har beshtadan bittasi, haqorat qilish va tuhmatning sakkiztadan bittasi aynan oila-turmush sohasida sodir etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning: "Oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda" degan fikrlari mavzuning qanchalik dolzarb ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ichki ishlar organlari xodimlari tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishda birinchi bo'g'inlardan biri bo'lib, xodimlarning malakasi va zo'ravonlik sodir etilgan hollarda amalga oshirilgan dastlabki harakatlari katta ahamiyatga egadir. Zo'ravonlikdan jabrlangan ayolning profilaktika inspektori davlat himoyasini ta'minlay berishiga bo'lgan ishonchiga kelgusi harakatlari bog'liq. Hozirda oilaviy zo'ravonlik eng ko'p



uchraydigan jinoyatlar sirasiga kirib bormoqda, shunday bo'lishi tabiiy, zotan. Chunki jamiyatning o'zi oiladan tashkil topar ekan, oilaviy mojarolar ham jamiyat e'tiborining qoq markazida bo'ladi.

Aslida oilaviy zo'ravonliklar eng qashshoq va aholisi savodsiz davlatlarda yuz beradi. Ularning ko'plab aholisi ro'yxatga ham olinmagani bois necha ayolning oilaviy zo'ravonlikka uchragani, nechovining hayotdan ko'z yumib ketganining hisobini hech kim bilmaydi. Shuningdek, rivojlanib borayotgan davlatlarda ham ayollarning oilaviy zo'ravonlikka duch kelayotgani aytilmoqda. Ayniqsa, AQSH va Fransiyada ayollarning oilaviy zo'ravonlikka uchrashining sababi ko'pchilik tasavvur qilganidek, ularning huquqlari cheklangani bois emas, aksincha, huquqlarining hatto odob-axloq doirasidan ham o'tib, cheksizlashib ketgani sabab bo'layotganini kuzatib kelmoqdamiz. BMT Bosh Assambleyasi 2000-yilda qabul qilgan rezolyutsiyasida har yili 25-noyabrni Xalqaro xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklarga barham berish kuni sifatida nishonlanib keladi. An'anaga binoan har yili 25-noyabr kuni "Gender zo'ravonliklariga qarshi faol 16 kun" deb nomlangan kampaniyaga start beriladi. Bu kampaniya Xalqaro inson huquqlari kuni nishonlanadigan 10-dekabrda yakunlanadi. Bosh Assambleya rezolyutsiyasida jahon mamlakatlari hukumatlari, BMT tizimidagi tashkilotlar, xalqaro va nohukumat tashkilotlarga murojaat qilib, shu kuni xotin-qizlarga qarshi zo'ravonliklar bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi.

BMTning statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har uchinchi ayol jismoniy zo'ravonlikka uchraydi. Ushbu ko'z yumib bo'lmaydigan ijtimoiy muammo O'zbekistonda ham mavjud.

Ayollarga nisbatan zo'ravonliklarda aralashmaslik, bunga "oila siri" deb qarash mazkur muammoning jamiyatda keng ildiz olib ketishiga olib keladi. Negaki erkak ayolga do'q ursa, shikast yetkazsa, do'pposlasa va bunga chora ko'rilmasa, gap oiladan tashqariga chiqarilmasa, albatta bu holat doimiy tus oladi.

Oiladagi zo'ravonlik nafaqat jismoniy, psixologik, balki bu jinsiy yoki iqtisodiy zo'ravonlik ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin

Zo'ravonlikdan erkaklar ham jabrlanishi mumkin, lekin xotin-qizlarning zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqoriligi, zo'ravonlik turlari, og'irlik darajasi va kelib chiqadigan oqibatlar keskin farqlanishini inobatga olgan holda, so'nggi islohotlar aynan ularni himoya qilishga qaratilgan.

Bugungi kunda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish borasida jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish uchun choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Inson



huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo‘ravonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo‘ravonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo‘yilgan. Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklarasiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi hamda shaxsni oiladagi zo‘ravonliklardan himoya qiladi.

Milliy qonunchiligimizda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning hayoti, sog‘lig‘i, qadr-qimmatini va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvorlik kasb etadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 26-moddasida: “Hech kimning qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas“, deb qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida“ Qonunining maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Aytish kerakki, shu kunlarda yurtimizda “Zo‘ravonliklarga qarshi birgalikda kurashamiz!” mavzusida aksiya o‘tkazilmoqda. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – bu "jins belgisiga asoslangan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zararga olib keladigan yoki ayollarga aziyat yetkazadigan, shuningdek, bunday harakatlarning tahdidlari, jamiyat yoki shaxsiy hayotda bo‘lsin, majburlash yoki ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – inson huquqlarining eng keng tarqalgan buzilishlaridan biridir. U xotin-qizlarni tenglik, xavfsiz hayotdan mahrum qiladi, inson qadr-qimmatini yerga uradi va asosiy erkinliklarni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, butun dunyoda bu muammoga qarshi kurash olib boriladi.

O‘zbekistonda ham keyingi vaqtlarda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ularga yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda ushbu masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu munosabat bilan og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida turli hil zo‘ravonlikka duch kelgan xotin-qizlarni ruhiy qo‘llab-quvvatlash va ularga motivatsiya berish, zo‘ravonlikka qarshi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish maqsadida jamoatchilik e’tiborini ushbu masalaga jalb etishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmoqda.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganlar bilan ishlarni takomillashtirish maqsadida Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi qaroriga asosan Mahalla va oilani



qo‘llabquvvatlash vazirligi huzurida 29 ta Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha respublika markazi, shu jumladan, 1 ta Respublika markazi, 14 ta hududiy markazlar va 14 ta namunali tumanlararo markazlar tashkil etildi. Markazlarning asosiy vazifalaridan biri tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko‘rsatishdan iborat.

Zo‘ravonlikning oldini olishda ko‘p shakllar mavjud. Mamlakatdagi zo‘ravonlik darajasi va o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan omillar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik bor. Masalan, konsentrlangan (mintaqaviy) qashshoqlik, daromadlar va gender tengsizliklari, spirtli ichimliklarni iste‘mol qilish, bolalar va ota-onalar o‘rtasida xavfsiz, barqaror hamda tarbiyaviy munosabatlarning yo‘qligi. Garchi ruhiy va jismoniy salomatlik hamda individual reaksiyalar, shaxsiyatlar va boshqalar bu xatti-harakatlarning shakllanishida doimo hal qiluvchi omillar bo‘lib kelgan bo‘lsada, zo‘ravonlikning asosiy sabablarini hal qiluvchi strategiyalar uning oldini olishda nisbatan samarali bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish bo‘yicha sa’y-harakatlarni doimiy ravishda izchil amalga oshirish sodir etilayotgan zo‘ravonlikning kamayishiga olib kelishi aniq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. B. Hojiyev “HUQUQIY MADANIYAT” TOSHKENT
2. SAIDOV .A TOJIMATOV .U “HUQUQ NAZARIYASI”T.ADOLAT 2001y.22-bet
3. SAIDOV .A TOJIMATOV .U “HUQUQ NAZARIYASI”T.ADOLAT 2001y.35-bet
4. Бешкарев А.А. «Письма русского путешественника» Н.М. Карамзина: Проблемы поэтики: дис. ... канд. филол. наук. Сыктывкар, 2003. -С.33.



O‘ZBEKISTONDA MILLIY CHOLG‘U ANSAMBLAR RIVOJLANISHINING TARIXIY AHAMIYATI

Sobirov Otajon

Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbek xalq cholg‘u ansambllarining shakillanish tarixi, bosqichlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, mutafakkir allomalarning musiqa cholg‘ulari shakillanishidagi xizmati va asarlaridagi ifodalari yoritib berilgan. Hamda, maqolada musiqa san’atida cholg‘u ansambli ustida ishlash va ularning faoliyatini amalga oshirish uslublari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, guruh bo‘lib kuylash jarayonidagi ijro mashqlari va ansambl ijrochiligining imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa madaniyati, o‘zbek xalq cholg‘ulari, Maqomat, Shohnoma, Badoye’ ul-vasot, ansambl.

Musiqa ko‘plab asrlar davomida insonga hamroh bo‘lib, uning mehnat faoliyatini, turmushini, his-tuyg‘usi hamda kechinmalarini, o‘y-fikrlari va orzu-umidlarini aks ettirib kelgan. Insoniyat jamiyatining umumiy rivojlanishi hamda biron-bir xalqning konkret tarkiy turmush sharoitiga muvofiq holda uning musiqasi rivojlangan. Har bir xalqning boy mazmuni, janr va badiiy obrazlar xilma-xilligi, ohang xususiyatlarining o‘ziga xosligi, ritmikasi va melodika (ohang) qurilishi, o‘ziga xos musiqa (cholg‘u) asboblari yaratilishi bilan farqlanuvchi jozibador musiqa asari behisobdir. O‘zbek xalqining cholg‘u asboblari bag‘oyat rang-barang: ular mavjud cholg‘u asboblarining deyarli barcha tiplarini o‘z ichiga oladi.

Tarixan shunday bo‘lganki, an’anaviy o‘zbek musiqasida - vokal musiqada ham, cholg‘uda ham bir ovozli, ya’ni unison ijrochilik yaratilgan. Ushbu an’ana hozirgacha saqlanib qolgan. Hozir O‘zbekistonda milliy cholg‘u asboblarining ikki turi baravar mavjuddir. Bular:

1. Og‘zaki an’anada (eshitib) kuy ijro etiladigan cholg‘u asboblari.
2. Yozma an’anada (nota bo‘yicha) kuy ijro etiladigan (takomillashtirilgan) cholg‘u asboblari.

O‘zbek musiqiy cholg‘ular olami bu xususda ma’nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e’tirof etib o‘tish kerak. Qolaversa, qaysiki xalqning ma’naviyati yuksak bo‘lsa, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir.



Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'u ansambllari rang-barang tarzda, o'ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg'u asboblari shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. O'tmish allomalari Al-Forobiy (IX asr) o'zining «katta musiqa kitobi»da, Safiuddin Urmaviy (XII asr) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iy (XIV asr) «Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy» risolasida, Ahmadiy (XIV asr) «Sozlar munozarasi» asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV asr) «Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy» risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV asr) «Musiqiy risola»sida, Amuliy (XVI asr) «musiqa risola»sida, Darvesh Ali Changiy (XVII asr) «Musiqiy risola»larida musiqiy cholg'u ansambllarni o'rganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to'xtalib, o'z davrlarining musiqiy cholg'ulari tasnifotini bayon etganlar. O'tmishning zabardast shoirlari o'z asarlarida musiqiy cholg'ular nomlarini zikr etishda sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ayniqsa, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosatli va mumtoz kerakli tarmoqlariga urg'u berib o'tganliklarini asarlaridan bilib olish mumkindir. XX asrga kelib Eyxorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg'u ansambllarni o'rganish xususida samarali ish olib borganlar.

Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O'rta Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg'u ansambllarining nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg'ular uchun ishlatiladigan daraxtlar va h.k. haqida) ma'lumotlar keltirilgan. Ularda, torli cholg'ulardan: borbadd, ud, rud, qo'buzz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor; damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona, karnay; urma cholg'ulardan: daf, doyra, nog'ora, safoil kabilar haqida turli darajadagi ma'lumotlar keltirilgan.

Al-Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayevlar o'z risolalarida cholg'u sozlariga katta e'tibor bilan yondoshib, ularni amaliyotdagi tutgan o'rni, ayrim falsafiy xususiyatlari hamda ma'lum darajada tasnifoti bilan yoritganlar.

Odatda, musiqiy cholg'ular ijrochilik amaliyotining turli yo'nalishlarida qo'llanilib kelingan. Avvalo eng sodda cholg'ular yaratilib, kundalik hayot tarzida keng foydalanilganligini qayd etish joizdir. Bunday cholg'ular har bir xalqning cholg'ular dunyosida mavjuddir, ayni paytda ham iste'molda bo'lib keladi. O'zbek xalq ijrochilik amaliyotida saqlanib, qo'llanib kelinayotgan cholg'ulardan chang, qo'biz, sibizg'i shular jumlasidandir. Bu cholg'ularni tayyorlash va ijro etish ham oddiyligi bilan ajralib turadi.



Davrlar o'tishi, jamiyat taraqqiyoti mezoniga cholg'u ansambllari va sozlar ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomillashib, mukammallashib borgan. Tarixiy manba'larda, Qulmuhammad Udiyning ud cholg'usiga to'rtinchi sim taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining avval ikki torli, keyin uchinchi va to'rtinchi torlari taqilganligi kabi ma'lumotlar aynan cholg'u ansambllari takomillashishi bilan bog'liqdir. Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va tarannum (ovoz) mezonlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan. Bu ikki mezon cholg'ularning ma'nan va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bo'lib xizmat qilgan. Zero, chiroyli cholg'u go'zal ovozga ega ekan, u xalq ma'naviy boyligi hamda mulki ekanligini e'tirof etish lozimdir.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida o'zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib iste'molga kirdi. Ud va qonun sozlari qayta tiklanib, ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda kurd sozlari ham o'ziga xos jozibasi bilan amaliy jarayondan munosib o'rin oldi. Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti bilan bog'liq holda bir qator chang, rubob, dutor, g'ijjak kabi xalq cholg'ularining oilaviy namunalari yaratildi. Pirovardida, zamonaviy jarayonga kelib musiqiy cholg'ularning turli yo'nalishlarga mos, xilma-xil tarkiblari yuzaga keldi. Amaliyotda an'anaviy, qayta ishlangan, takomillashgan, qayta tiklangan, yangi zamonaviy (hamda elektron) xillari keng qo'llanilmoqda.

Qayd etish joizki, cholg'ular, cholg'u musiqasi hamda ijrochiligi azal-azaldan bir-birini to'ldirib, rivojlanishiga va takomillashishiga zamin yaralib kelgan. Ijrochilik mezonining rivoji cholg'ular ko'lamini kengaytirish, imkoniyatlarini oshirish uchun xizmat qilgan. O'zbek an'anaviy cholg'ularining tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy an'analari negizida qaror topgan. kasbiy musiqaning ijodiyoti va uning rivoji aynan cholg'u ansambllari bilan chambarchas bog'liqligini qayd etib o'tish lozimdir. Chunonchi, mumtoz ijodiyot cholg'ularning mukammallik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularning rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois, cholg'ular va cholg'u musiqasi an'analari o'zining shakllanish davri, ya'ni qadim zamonlardan xalq musiqa madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Cholg'ushunoslik ilmi fanda «organologiya» deb yuritiladi va cholg'u sozlarning shakllanishi, amaliyotda qo'llanilishi hamda rivojlanish mezonlarini ilmiy asoslab beradi. Ushbu fanning rivojida bir qator Sharq va G'arb olimlari qatorida o'zbek musiqashunos olimlari ham munosib tadqiqotlar olib borganlar. Qadimiy cholg'ular ko'proq tarixiy obidalar orqali kashf etilib, keyinchalik tarix, adabiyot va musiqiy risolalarda bayon etilgan.



This generation is one of the ancient generations of Sayyid Khwaja, and 38 generations of the ancestors of Sayyid Bahadir Khan from the Prophet Muhammad (peace and blessings of Allah be upon him) are known in the genealogy. He is a paternal descendant of Salih Ato (Father) ibn Amir Hasan ibn Burhaniddin Suleiman al-Qadiri al-Bukhari. Information about the genealogy of the family was preserved in the Nasabnomai Sharif manuscript, kept by the descendants of Kazi Bahadir Khan.

His father, Sayyid Ibrahimkhodja, was a craftsman, an expert in Islamic science and a teacher of Sharia law. He taught his son Islam from childhood. Sayyid Bahadir Khan's grandfather and father had extensive knowledge of the religion and history of their ancestors. At night, various hadiths from Sahikhul Bukhari were read in their house.

Sayyid Bahadir Khan learned the Qur'an by heart at the age of 12. He received his primary education in the village madrasa of his ancestors. He re-reads all the books in the madrasa, he studies everything at home - the books of his ancestors written in Arabic, Persian and Turkish languages. He continued his studies at the famous Madrasa of Central Asia, Mir Arab Madrasa in Bukhara. Here, Sayyid Bahadir Khan perfectly mastered Arabic and Persian languages. He studies Islam, history, philosophy and jurisprudence, gets acquainted with the works of Aristotle and Socrates. He studies the works of sages such as Naqshbandi, Yassavi, Kubrovi, and Ibn Sina, and learns their poetry.

In addition, he studies Navoi, Shirozi and many other great poets and philosophers. He studied at Mir Arab madrasa, which was famous at that time, and became the head teacher of mudarris. Excellent knowledge and strong scientific potential enabled Sayyid



Bahadir Khan to occupy the post of judge of Ishtikhan district in 1895. He also taught at the Mir Arab madrasa and the village madrasa in the village of Safokhoja.

By the end of the 19th century, Eshon Bahadirkhan, a supporter of the Hanafi sect, became one of the most influential scientists in the Samarkand region. He took an active part in promoting the teachings of Islam, Sharia, Fiqh and Naqshbandi. In 1911, he built a large house for his foundation in the center of Ishtihan on the eastern side of the city market. There were mosques, libraries and dhikr rooms used for prayers, meetings and dhikr. The cells were located around the prayer hall. Currently, the central city market "Ishtikhan Dehkan Bazar" is located on the site of the house.

Qazi Sayyid Bahadir Khan served as a judge until his death in 1916. In the last years of his life, he lived in the village of Safokhoja in Ishtikhon district, where he was born and raised, and was buried in the Safokhoja cemetery.

After the Russian Empire conquered the country, it introduced its own style of administration. Such works were also carried out in Samarkand. In particular, Samarkand uyezd was established here, and Jumabozor was turned into volost. But during this period, due to several reasons, the post of judge was preserved in the administration of the volost. As in the whole country, the post of judge functioned in Jumabozor Volost during this period. According to the information provided by M. Virsky and V. Vyatkin, the volost included such villages as Elpak, Talli Ota, Bogizagon, Sari Asia, Payshanbasiyob Rabat, Dargom, Uzun Yastepa, Navzandak, Shokhkash, Shopolot and Adas. These villages were considered the territory of the Volost Judge's Court. Since the establishment of Jumabazar as a volost, with a short break (from the middle of 1884 to August 1887, Mulla Muhammad Vali Khoja ibn Aftab Khoja was the judge) until the end of 1306/1888 AH, Mulla Qazi Khoja ibn Qazi Mulla Khoja acted as a judge. During his career, he did many things for the benefit of the people. This was important in ensuring justice among the residents of the region.

During the period of Mulla Mir Ma'sum ibn Khalifa Muhammad, who worked as a judge in this region from 1888-1889, the work in this regard was continued. In particular, during this period, studies of complaints and objections expressed by the people and finding a fair solution to them are strictly controlled. Strict adherence to Shariah guidelines is required in every case. Under the rule of the Russian Empire, doing such work for the population suffering from colonial oppression certainly required great courage.

The colonizers of the Russian Empire appointed representatives of local nationalities to the lower administrative bodies. With this, they aimed to rule the local people with their hands. The same situation can be observed in Jumabozor Volost. In



particular, the volost was headed by Mullah Sultan Goipov in 1894, while Mullah Buzrug Khoja Avliya Khoja Mirakony worked as a judge during this period. In 1903-1904, Rahmonqulibek Haydarbekov, in 1904 and 1907, Mahmud Abdujabbarov, in 1905, Ahmad Khudoinazarov and others worked as the head of the volost.

As mentioned above, the position of judge was also considered important during this period, and the colonial authorities had to appoint representatives of the local people to this position. In particular, during this period, judges such as Mullah Mir Muqaddas ibn Mullah Mir Saidgani (1897, 1903 - 1908) and then Mullah Mirsadiq ibn Mullah Mirma'sum (1909) conducted court and judicial affairs in the position of people's judge (judge) of Jumbazor Volost. In this regard, detailed information is provided in the "Jumabozor judicial documents" kept in the fund of UzMDA. This document provides valuable information about the ancient location, economic potential, mutual trade and ownership relations of Jumabozor, surrounding villages and towns. Below are examples of correspondence in judicial documents, which will allow you to get more detailed information about judicial activities.

The mines of Samarkand were great centers of learning in the 19th century, and they played an important role in the production of products that were important industrialists in the aquatic world of the East. Cotton, yarn, and stone were produced in these factories.

At the beginning of the 19th century, the growth of industrial reforms in Russia opened up new opportunities for the Samarkand treasury. Rising spending in Russia, the closing recession of Samarkand, and expanding access to Asian markets in general have provided ample insurance so far. Also, the strengthening of human relations, the establishment of good roads, and the development of technologies were one of the important processes in the history of Samarkand courts.

Samarkand courthouses have seen significant development since the middle of the 19th century. Part of this development was due to increased Russian spending on Asian markets. As a result of this, the establishment of courthouses operating in the field of cotton, yarn, and stone production became of great importance. The geographical location of Samarkand, its proximity to historical water market places, changed its importance in creating favorable conditions for foreign spending. Expansion, growth, and creation of mutual relations in its urban area opened up new opportunities for the Samarkand courthouses.

Along with other information, technological changes also played a big role in the development of courthouses. In the middle of the 19th century, technological innovation took place, including the growth of mechanization and the production of new equipment. These facts form one of the



important processes in the history of the Samarkand courthouses and help to understand how they developed. The 19th century was an important period for the Samarkand mining industry as an important production center of the Asian markets. During this period, Samarkand had a fixed place in economic, social and geographical conditions, which created favorable conditions for its courts.

Samarkand was one of the cities located in the center of Asian markets, and its geographical location was of great importance for its economic and social development. Geographically, Samarkand was one of several areas supplied with water by the discharge of the Syrdarya River, which created favorable conditions for the cultivation of agriculture. In addition, its central location facilitated transport links with further agricultural countries such as Tajikistan, Kyrgyzstan, and Uzbekistan.

Summary.

In this article, I provided information about the ways in which the Samarkand courthouses help young people to study, get a job, and succeed in life, and I also got the necessary insights for myself. I have also mentioned how these courts play a role in creating many opportunities for young people through training centers, vocational opportunities and educational methods. I believe that this is useful not only for young people, but also for older people.

References:

1. <https://www.bukhari.uz/?p=34222&lang=oz>

2. Samarqand tarixi. 1998

3. www.ziyouz.com

4. Ziyouz.com kutubxonasi

J. Mustafayev. Бой тарихий меросимиз ҳамда ёшлар маънавияти. СамҚХИ. Илмий мақоллар тўплами, 2009. -Б. 143.

J. Mustafayev. Шахс маънавий-ахлоқий баркамоллигининг ривожлантиришда эстетик қадриятларнинг аҳамияти. СамҚХИ. Илмий мақоллар тўплами, 24-25 апрел, 2013 й, 188-бет.

J. Mustafayev . XXI asrda fan-texnika taraqqiyoti va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Qishloq xo'jaligida innovasion texnologiyalarni joriy qilish muammolari, SamQXI, 2012, 240 bet.

J. Mustafayev Жади́дчи́лик ва уларнинг мустақил Ўзбекистон тараққиётини такомиллаш-тиришдаги аҳамияти. Ўзбекистонда илмий–амалий тадқиқотлар” мавзусидаги Республика 18-кўп тармоқли илмий конференцияси. 2020 йил. июл. 2-қисм. 50 бет.



J.Mustafayev. The Emergence Of Jadidism And The Period Of Mahmudkhoja Behbudi's Activity. Published in International Journal of Research (IJR) with ISSN 2348-6848, (Online) and 2348-795X (Print), Vol. 7 Issue 5 Month May Year 2020, India. Impact Factor 5.60, The journal is indexed, peer reviewed and listed in UGC Care. Page: 450

J.Mustafayev. Туркистонда жадидчилик ҳаракатининг шаклланиши ва ривожланишида Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ўрни. Наманган давлат университети Илмий Ахборотномаси. 2020 йил, 8-сон.

J.Mustafayev. Жадидчилик ва учинчи ренессанс. “Маънавий меросда ворислик ва унинг ХХІ аср таълим-тарбиясидаги урни» мавзусидаги Республика илмий конференцияси. 2021 йил 20 май. Самарканд.

J.Mustafayev. Ўрта Осий энг қадимги ёзма ёдгорликларида ахлоқ масалалари . “Маънавий меросда ворислик ва унинг ХХІ аср таълим-тарбиясидаги урни» мавзусидаги Республика илмий конференцияси. 2021 йил 20 май. Самарканд.



ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA SALBIY TA'SIRI VA UNI OLDINI OLISH YO'LLARI

Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li

Namangan davlat universiteti Kasb talimi kafedrasi o'qituvchisi

Sharipov Abdulvahob Muhibjon o'g'li

Namangan davlat universiteti Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola mamlakatimiz hududida mavjud sanoat korxonalarini chiqarayotgan zararli moddalarining tahlili hamda ularni oldini olishda qanday ishlar olib borilayotganini nazarda tutadi.

Аннотация: В данной статье проводится анализ вредных веществ, выбрасываемых действующими промышленными предприятиями на территории нашей страны и что делается для их предотвращения.

Annotation: This article provides an analysis of harmful substances emitted by existing industrial enterprises in the territory of our country and what is being done to prevent them.

Kalit so'zlar: zararli modda, texnogen modda, atmosfera, atrof-muhit, xavf

Ключевые слова: вредное вещество, техногенное вещество, атмосфера, окружающая среда, опасность.

Key words: harmful substance, man-made substance, atmosphere, environment, danger

Kirish. O'zbekiston ham ko'plab rivojlangan mamlakatlar qatoriga yangi ming yillikga qator ijtimoiy-iqtisodiy demografik va ekologik xarakterga ega bo'lgan dunyo miqyosidagi muammolar bilan kirib keldi. Tabiiy resurslardan jadal foydalanish, moddalarning tabiiy aylanish tarkibiga kirmaydigan ishlab chiqarishning foydalanishning mumkin bo'lmagan mahsulotlarning atrof-muhitga tashlash, ekologik jihatdan xavfli bo'lgan biotexnologiyalardan foydalanish energiya manbalaridan va boshqalar inson faoliyati bilan o'rab turuvchi muhitning holati orasidagi muvozanatning buzilishiga olib keldi. Ko'pchilik holatlarda buzilgan muhitda tirik organizmlarning yashash faoliyati bilan ularning adaptasion mexanizmlari imkoniyatlarining mos kelmasligi kuzatilmoqda. Yuqori texnogenli yuklamalar natijasida ta'minlab beruvchi tashqi muhit tajovuzining ortishi tirik organizmlar genofondining sifatiga albatta o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, qaysiki tabiiy evolyusion moslashishning tezligi atrof muhitning o'zgarish jadalligiga mos kelmaydi va bu esa o'z navbatida tabiatda «Ekologik keskinlik» sindromini chaqiradi. O'tgan asrning 90-yillarida




O'zbekiston hududida ko'plab sanoat korxonolari qurildi. Masalan, Qoravulbozor neftni qayta ishlash, Muborak gaz kondesat zavodi, Navoiy azot o'zeli, Navoiy tog' metallurgiya kombinati, Jizzax akkumulyator zavodi va hokazolar tomonidan tashqi muhitga zaharli sanoat chiqindilari chiqarilmoqda[2].

Organizmlar yashayotgan muhitning texnogen o'zgarishlari orasida uning sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi ancha ayanchli asoratlarga olib kelmoqda. Turli tabiatga ega bulgan zaharli moddalar ancha yuqori xavf tug'diradi. Ifloslovchi moddalar texnogen moddalar yoki tabiiy xarakterdagi aralashmalar sifatida kimyoviy elementlarni migrasiyalanish va energiyani transformasiyalanish sikllarini buzadi va ekotizimning yaxlit faoliyatiga noqulay ta'sir ko'rsatadi. Biosferada dunyo miqyosidagi hududiy va lokal oqimlari va ksenobiotiklarni, ya'ni biosfera uchun begona bo'lgan kimyoviy birikmalarning aylanishi shakllanadi[5].

Natija va mulohazalar. Hozirda mamlakatimiz atmosfera havosi, suv, tuproq qatlamini zararli moddalar bilan ifloslantirish bo'yicha «peshqadamlik» «Navoiyazot», «Ohangaron sement», «Maksam Chirchiq», «Bekobodsement», «Farg'onaazot», «O'zmetkombinat», «Olmaliq tog'-kon kombinati» kabi yirik sanoat korxonalariga to'g'ri kelmoqda. Ulardan atrofga chiqayotgan zaharli moddalar belgilangan normalardan 40 baravargacha ko'proq ko'rsatkichni ko'rsatmoqda. Bu haqida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qoshidagi jamoatchilik kengashining navbatdagi yig'ilishida ma'lum qilib o'tilgan. 2019 yilning birinchi yarim yilligida yirik sanoat korxonalarining atrofni ifloslantirayotgani yuzasidan fuqarolardan 175ta murojat kelib tushgan. 2018 yil yakunlari bo'yicha atrofga 2 mln 449 ming tonna zararli modda chiqarilgan. Buning 1 mln 600 ming tonnasi avtomobil vositalariga, 880 ming tonnasi ishlab chiqarish korxonolari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Respublikada 300 mingdan ziyod xo'jalik korxonolari mavjud bo'lib, ulardan 5 mingtasi ekologiyani zararlantirish bo'yicha birinchi va ikkinchi toifali korxonalar hisoblanadi[6].

Sanoat korxonalarida olti mingdan ortiq chang-gaz tozalash uskunalari mavjud. Shundan 60 foizdan ortig'i 10 yildan ziyod muddatda foydalanishda bo'lib, hozirgi kunda ular har tomonlama eskirgan. Uskunalarining eskirish ko'rsatkichi, ayniqsa, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlarida juda yuqori bo'lib turibdi[9].

Hozirgi kunda atrof-muhit turli manbalardan tashlanayotgan chiqindilar ta'sirida doimo ifloslanadi. Atrof-muhitga tashlanadigan chiqindilar material va energetik chiqindilarga bo'linadi. Material chiqindilarga gazsimon, suyuq va qattiq chiqindilar kiradi. Energetik chiqindilarga esa elektromagnit to'lqinlar, qattiq shovqin, issiq oqim va radioaktiv nurlanishlar kiradi.



Atmosfera havosini tabiiy manbalar ta'sirida ifloslanishi yerning barcha hududlarida sodir bo'lib turishi mumkin. Bular kuchli shamol natijasida o'rama bo'ronlami, dovullami hosil bo'lishi, uning ta'sirida tuproqlarning yemirilishi va natijada chang-to'zonlar ko'tarilib, atmosfera havosining ifloslanishidir. Bunday ifloslanish ko'pmcha tropik, sahro-cho'l mintaqalariga xos bo'lib, kuchli siklonlar oqibatida ro'y berib turadi[4].

Atmosfera havosining asosiy ifloslantiruvchi moddalar quydagilarni tashkil qiladi:

Karbonat angidrid (CO_2) - yoki karbonat angidrid - nordon hid va ta'mga ega bo'lgan rangsiz gaz, uglerodning to'liq oksidlanish mahsuloti. Erdagi erkin kislorodning asosiy manbai bo'lgan fotosintez uchun zarur gaz. Past konsentratsiyalarda u xavfli emas, havoda yuqori konsentratsiyalarda havo bilan nafas oluvchi tirik organizmlarga ta'siri bo'yicha u asfiksiyali gaz sifatida tasniflanadi.

Uglerod oksidi (CO) rangsiz, hidsiz gaz bo'lib, uglerod oksidi sifatida ham tanilgan. U kislorod etishmasligi sharoitida va past haroratlarda qazib olinadigan yoqilg'ining (ko'mir, gaz, neft) to'liq yonmasligi natijasida hosil bo'ladi. Nafas olayotganda, uglerod oksidi, uning molekulasida mavjud bo'lgan qo'sh aloqa tufayli, inson qoni gemoglobini bilan kuchli murakkab birikmalar hosil qiladi va shu bilan kislorodning qonga oqishini bloklaydi.

Oltinugurt dioksidi (SO_2) (oltinugurt dioksidi, oltinugurt dioksidi) oltinugurt o'z ichiga olgan qazilma yoqilg'ilarni, asosan, ko'mirni yoqish paytida, shuningdek, oltinugurt rudalarini qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladi. U birinchi navbatda kislotali yomg'ir hosil bo'lishida ishtirok etadi. SO_2 ning global emissiyasi yiliga 190 million tonnani tashkil qiladi. Oltinugurt dioksidining odamga uzoq vaqt ta'siri birinchi navbatda ta'm sezgilarining yo'qolishiga, nafas qisilishiga, so'ngra o'pkaning yallig'lanishi yoki shishishiga, yurak faoliyatidagi uzilishlarga, qon aylanishining buzilishiga va nafas olishni to'xtatishga olib keladi.

Azot oksidlari (azot oksidi va azot dioksidi) gazsimon moddalardir: azot oksidi NO va azot dioksidi NO_2 bitta umumiy formula NO_x bilan birlashtirilgan. Barcha



yonish jarayonlarida azot oksidlari, asosan, oksid shaklida hosil bo'ladi. Yonish harorati qanchalik yuqori bo'lsa, azot oksidi hosil bo'lishi shunchalik intensiv bo'ladi. Azot oksidlarining yana bir manbai azotli o'g'itlar, nitrat kislota va nitratlar, anilin bo'yoqlari, nitro birikmalar ishlab chiqaruvchi korxonalaridir. Atmosferaga tushadigan azot oksidlarining miqdori yiliga 65 million tonnani tashkil qiladi. Atmosferaga chiqariladigan azot oksidlarining umumiy miqdoridan 55% transport, 28% energiya, 14% sanoat korxonalari, 3% kichik iste'molchilar va maishiy sektor hissasiga to'g'ri keladi.

Ozon (O_3) o'ziga xos hidga ega bo'lgan gaz, kisloroddan ko'ra kuchliroq oksidlovchi moddadir. U barcha umumiy havo ifloslantiruvchi moddalardan eng zaharlisi hisoblanadi[10].

Xulosa va takliflar. Ushbu moddalarning atmosfera havosi tarkibida ko'payishi insonlar o'rtasida qolaverasa ona tabiatda yashovchi barcha jonzorlar uchun xavfli hisoblanadi. Sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli moddalarni kamaytirish hamda ekologik toza muhitni yaratish maqsadida mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tarmoq korxonalarida 2020-2023-yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish" bo'yicha chora-tadbirlar rejasidan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan kelishilgan, "2019-2022-yillar davomida "O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati korxonalari tomonidan atrof-muhitga zararli tashlamalar va ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirish chora-tadbirlari", O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan kelishilgan "Maksam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyati tomonidan atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar va chiqindilarini kamaytirish maqsadida xorijiy litsenziarlar, Rosiyaning ilmiy-tadqiqot institutlari tavsiyalariga muvofiq, "Maksam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyati va unga tutash hududlarda ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida chora-tadbir rejaları ishlab chiqilgan[3].

Shuningdek, "O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati har yili tizimdagi korxonalar va tashkilotlar hamda ularga tutash hududlarda "Atrof-muhit himoyasiga barchamiz mas'ulmiz!" shiori ostida ko'klamzorlashtirish loyihasini o'tkaziladi. Loyiha doirasida "O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi tarmoq korxonalar va tashkilotlar tomonidan daraxt va manzarali ko'chatlar ekish belgilangan. 2020-yil birinchi marta o'tkazilgan loyiha doirasida jamiyat tizimidagi korxonalar-tashkilotlar



tomonidan 62500 dona manzarali daraxt, 1200ga yaqin mevali daraxt va 81000dan ortiq manzarali ko‘chat hamda gullar ekildi. Joriy yil mart-aprel oyilarida tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan 6290 dona manzarali daraxt, 4500 dona mevali daraxt hamda 177 200 dona gul va ko‘chatlar ekildi. Tarmoq korxonalarida sanoat chiqindilarining hosil bo‘lish miqdorini kamaytirish maqsadida chiqindilarni turiga qarab alohida yig‘ish, saqlash va qayta ishlash bo‘yicha ishlar yo‘lga qo‘yilgan hamda “Toza hudud” davlat unitar korxonasi bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Ushbu olib borilayotgan ishlar zamirida mamlakatimizni gullab yashnashi, artof muhitni ekologik jihatdan toza saqlash, inson salomatligining ustuvorligi, tabiatimizni asrashga bo‘lgan e‘tibor deb atash mumkin. Albatta ekologik toza muhitni saqlay bilish uchun aholini ham yetarli darajada saviyasi bo‘lishi bunga erishish uchun atrof muhitni asrash unga e‘tiborli bo‘lish tabiatni bizga bergan ne‘matlarini avaylashga qaratilgan tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turobjonov S.M., Tursunov T.T., Niyazova M.M., Pulatov X.L. Sanoat chiqindilarini rekupereatsiya qilish texnologiyasi. T.: «O‘qituvchi», 2011. - 280 b
2. Tursunov T.T., Niyazova M.M., Adilova K.M., Lutfullayeva N.B. Ekologiya fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish uchun uslubiy qo‘llanma// Toshkent: ToshKTI, 2019. 28 b.
3. Мотузова, Г.В.; Карпова, Е.А. Химическое загрязнение биосферы и его экологические последствия i К., 2016. - 360 с
4. Mutalov Sh.A., Tursunov T.T., Pulatov X.L., Nazirova R.A., Azimov D.M. Ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda ion - almashinuvchi polimerlarga bo‘lgan ehtiyoj// Texnik va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar sohalarining muhim masalalari// Respublika oliy o‘quv yurtlararo ilmiy ishlar to‘plami. Toshkent: 2018. - B. 94-95
5. Василенко Т.А., Свергузова С.В Оценка воздействия на окружающую среду и экологическая экспертиза инженерных проектов,, 2019.125-129 с
6. Челноков Л.А., Общая и прикладная экология, 2014. 145-151 с
7. Опаловский А.А. Планета Земля глазами химика. — М.:Наука, 1990. 48-53с
8. <https://www.gazeta.uz/ru/2019/08/12/air-pollution/>
9. <http://choh.medprof.tma.uz/wp-content/uploads/2018/11/Talabalar-uchun-test-savollari-3000-.pdf>



O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA PSIXOLOGIK TAVSIYALAR

Qodirova Barokatxon Zaynobiddinovna

Andijon viloyati Paxtaobod tumani 38-sonli umumiy

o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya. Hozirgi kunda yoshlarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri o'z imkoniyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlariga mos kasbni tanlashdir. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo'llari haqida qisqacha fikr yuritilgan Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi.

Kalit so'zlar: Kasb, faoliyat, maqsad, kasbi malaka, kasbga yo'naltirish.

Kasb tanlashda maktab amaliyotchi-psixologining ham olib borayotgan targ'ibot-tashviqot ishlarning o'z ahamiyati bor. Chunki barcha o'quvchilar ham kasb tanlashda aniq bir fikrga kela olmaydi. Buning o'ziga yarasha turli xil sabablari bor. Bu o'rinda men o'zim ishlayotgan maktab bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan davra suhbatlari, anketa so'rovnomalari o'tkazdim. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'lik emas, u ma'lum yoshga kelib o'z o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muhtoj bo'lib boraveradi. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni



ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz. Kasb tanlash muammosi maktabning o'zida ko'rib chiqilishi kerak. Bu erda, boshqa hech qaerda bo'lmaganidek, o'quvchilarning qobiliyatlari namoyon bo'ladi, ularning bilimlari baholanadi va tengdoshlar va o'qituvchilar bilan muloqotda moslik darajasi kuzatiladi. Sinf o'qituvchisi ushbu mavzuga bir nechta dars soatlarini bag'ishlashi kerak. Bola uchun kasb tanlash juda qiyin, chunki uning qadamlari ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan nazorat qilinadi. Biroq, bu erda siz o'zingiz qaror qabul qilishingiz kerak, chunki uning kelajakdagi hayoti bunga bog'liq.

Kelajakdagi kasbni aniqlash ko'p vaqtni talab qiladi. Buning uchun maktablarda kasbga yo'naltirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi, o'quvchilarning qobiliyatlari va imtiyozlarini o'rganishga qaratilgan anketalarni to'ldirish taklif etiladi. O'quvchilar "Mening kelajakdagi kasbim" mavzusida insho yozishadi. Bularning barchasi har bir o'quvchiga ushbu qiyin tanlovda yordam berish, uni to'g'ri harakatlarga yo'naltirish uchun amalga oshiriladi. "Mening kelajakdagi kasbim" - bu insho yoki u yoki bu bolaning faoliyatiga bo'lgan qarashlar tasvirlanishi kerak bo'lgan insho. Bu bola bilan uning barcha fazilatlari, aqliy qobiliyatlari va qiziqishlarini chinakamiga qadrlash orqali kim bo'lishi mumkinligi haqida suhbatni boshlashning birinchi qadamidir. Ushbu topshiriqdan oldin o'qituvchi "Mening kelajakdagi kasbim" mavzusida insho yozish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berishi kerak. Mavzuning ahamiyatini yetkazish va nima uchun uni yozish uchun berilganligini tushuntirish kerak. "Mening kelajakdagi kasbim" - bu insho bo'lib, unga shunchaki baho qo'yish kifoya qilmaydi.

Texnologiya fani o'qituvchisi texnologik ta'lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma'lumotlarni muayyan mavzularga bog'lagan holda o'quvchilarga yetkazishi lozim. O'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o'tkaziladigan mashg'ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to'garaklar alohida o'rin egallaydi. Bunday to'garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular jumlasiga texnik-ijodkorlik, yosh rassomlar, yosh texnologlar, yosh fiziklar kabi to'garaklarni kiritish mumkin. O'qituvchi bunday to'garaklarda o'quvchilarning loyihachilik, texnik-ijodkorlik, ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borish imkoniyatiga ega. Texnologiya o'qituvchisi o'z ish faoliyatida pedagogik-psixologik tashxisga alohida o'rin ajratishi lozim.

Pedagogik-psixologik tashxis jarayonida o'qituvchi maktab rahbariyati va psixologi, o'quv-ishlab chiqarish muassasasi hamda kasb-hunar maktablari mutasaddilari bilan hamkorlikda har bir o'quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy sifatlari orasidagi mutanosiblikni aniqlashi kerak. Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining o'quvchilarni kasbga yo'llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari,



maktab rahbariyati va psixologi, ota-onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar maktablari ma'muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'llashda mehnat xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat fani o'qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlashga alohida e'tibor qaratishi lozim, chunki o'quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar dastlab shu yerda hosil bo'ladi. Ma'lumki, mehnat va kasb-hunarga bo'lgan muhabbat, e'tiqod, barcha o'quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta'lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Mehnat o'qituvchisining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Bolaning kelajakdagi kasbini tanlashda ota-onalarning o'rni Ota-onalar - chaqalog'ini beshikdan biladigan, uning qanday rivojlanganini, bolaligidanoq nimani yoqtirganini ko'rgan odamlar. Barcha vaqt davomida ular yaqin joyda bo'lishgan va birgalikda ba'zi muammolarni hal qilishgan. Ular qizini yoki o'g'lini eng yaxshi tarzda tasvirlab, bolasi qaysi sohada muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini ayta oladi. Albatta, ota-onalar farzandlari bilan kelajagi haqida tez-tez gaplashishlari kerak. Kelajakdagi kasb inson hayotida juda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun siz kim bo'lishni tanlash bilan bolani yuzma-yuz qoldirolmaysiz. Ota-onalar o'z farzandlari bilan birgalikda dunyodagi vaziyatni tahlil qilib, oldindan aniqlab olishlari kerak. Ota-onalarning izidan boring. Albatta, bitta istisnolar borki, bitta oilada bir necha avlod shifokorlar yoki o'qituvchilar sifatida muvaffaqiyatli ishlaydi. Ammo agar biron bir odam biron bir kasbga moyil bo'lmasa, u hech qachon yuqori malakali mutaxassisga aylanmaydi.

Ma'lumki, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish haqida qanchalik fikr yuritmaylik, maxsus testlarni ishlab chiqmaylik, baribir hayotda kim bo'lish kerakligini ota-ona ham bitiruvchi ham bilmaydi. Shu bois, bu muammoni samarali hal qilish maqsadida psixologlar quyidagi tavsiyalarga amal qilish zarurligini ta'kidlaydilar.

1. O'zingizni sinab ko'ring. Aksariyat kasb tanlash bosqichida bo'lganlar faqat bitta narsani bilishadi. Undan keyin nima qilish kerakligini umuman bilmasliklari barchamizga ayon. Shuning bilan birga qaror qabul qilish natijasida o'ziga xos qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Buning uchun sizga tanlagan kasbingizga mos yoki mos kelmasligingizni aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan testlarni maslahat beramiz. Shuni unutmang, siz bir vaqtning o'zida 3-4 ta testdan o'tsangiz, ularning natijalari mutlaqo bir-biriga teskari bo'lishi mumkin. Bunday paytda siz kasbga yo'naltirish bo'yicha



qulay testni tanlashingiz lozim. Psixolog E.Suslovaning fikriga ko‘ra, test to‘plami mazkur soha mutaxassisleri tomonidan tayyorlanish hamda individual ravishda tanlashi kerak. Shuni esda tutish kerakki, test natijalariga “hukm” deb qarash kerak emas. Biz psixik xususiyatlar va intellektni hisobga olgan holda aniq bir faoliyat turiga nisbatan moyillik xususida fikr yuritamiz.

2. Bilimlaringizni kengaytiring. Mazkur muammoni biroz osonlashtirish maqsadida siz mehnat faoliyati va undagi yo‘nalishlar, istiqboli mavjud bo‘lgan soha va mutaxassisliklar to‘g‘risida bilimlaringizni mustahkamlashingiz kerak. Har yili o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha kitoblar nashr qilib boriladi. Ularda siz hattoki, maktab o‘quvchilari ko‘pincha bilmaydigan kasblar bilan ham tanishishingiz mumkin. Ehtimol ulardan qaysi biridir sizning tanlovingiz bo‘lishi mumkin.

3. Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqing. Maktabni bitirish arafasida o‘spirin kasblar haqida xato va noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘ladilar. Ko‘pincha ular tanlagan kasblarini faqat ijobiy tomonlarini yoki aksincha salbiy jihatlarini ko‘radilar. Buning uchun ota-onalar farzandlariga ko‘p narsalarni aniqlab olishlari uchun yordam berishlari kerak. Shuning uchun 9-sinfdan boshlab asta–sekin o‘zingiz tanlagan yo‘nalishingiz bilan tanishish maqsadida institut va universitetlardagi “Ochiq eshiklar” kuniga tashrif buyurishni unutmagan holda qaror qabul qilishingiz lozim.

4. O‘z xohishlaringizni tizimlashtiring. Ba’zi soha mutaxassisleri maslahat berganidek, o‘zingiz uchun stol tayyorlashingiz mumkin. Sizni yuragingizga yaqin bo‘lgan kasblarni vertikal ravishda va faoliyatingizda nimani xohlashingizni gorizontol ravishda joylashtirishga harakat qiling. Jadvalni iloji boricha batafsil to‘ldirishingiz kerak. Agar tanlagan kasb sohasi va ishga qo‘yilgan talablar bir-biriga mos keladigan bo‘lsa, “+”, agar mos bo‘lmasa “-” ishoralarini qo‘yishingiz lozim. Shunday qilib, tanlovni amalga oshirishga yordam beradigan yoki tanlov doirasini va fikrlarni sezilarli darajada aniqlashga qaratilgan tasvir shakllantiriladi.

5. So‘zdan amalga. Shunday qilib, biz biror narsa to‘g‘risida qaror qildik yoki biror narsani tanladik. Endi siz o‘zingizni sinab ko‘rishingiz kerak. Buning uchun turli o‘quv-guruhleri bo‘lgan ko‘plab ixtisoslashgan maktablar va kursleri mavjud bo‘lib, ular sizga transport vositalarini mexanikasidan tortib, tadbirkorlikkacha o‘zingizni sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Mazkur ta’lim muassasalarining aksariyat qismida darslar bepul amalga oshiriladi.

6. Zaxira aerodromi. Sizni o‘zingiz xohlagan aniq tanlovingiz bo‘lishi bilan birga har holda qo‘shimcha ravishda e’tiborga olishingiz kerak bo‘lgan kasbingiz ham bo‘lishi kerak. Hayotni oldindan aytib bo‘lmaydi chunki har qanday narsa yuz berishi mumkin. Shu bois, tanlagan universitet va yo‘nalishingizga qobiliyatlaringiz mos kelmaganligi



sababli kira olmay ko'nglingizda jarohat hosil bo'ladi. Siz shunchalik ertalab uyg'onishingiz mumkin va o'zingizni tanlovingizdan xafsalangiz pir bo'lib, uni o'zgartirishga harakat qiling.

7. Qaror faqat mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Ota-onangiz tomonidan beriladigan maslahatlar foydali lekin ularni fikri yakuniy qaror bo'lmasligi kerak. Psixologlarning ta'kidlashicha, biz ko'pincha atrof-muhitga, qarindoshlar, o'qituvchilar, do'stlarimizga e'tibor qaratamiz. Odatda bunday vaziyatda ikkita yo'ldan boramiz ya'ni ularning fikriga amal qilamiz yoki aksincha. O'zi o'smir uchun nima kerak? Masalan, ona butun hayot davomida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullandi lekin u bu faoliyatidan allaqachon voz kechish kerak edi. Endi o'zi xohlagan narsasiga qizi orqali erishishga harakat qiladi. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutish kerak? Qarorni tinchlik yo'li bilan qabul qilishga harakat qiling. Masalan, raqs o'qituvchisi yoki ximiya o'qituvchiligidan qaysi birini tanlashingiz uchun ota-onangiz va do'stlaringizning maslahatlariga amal qiling. Baribir yakuniy qarorni o'zingiz qabul qilishingiz lozim.

8. Kasb tanlashda oilaviy an'anani davom ettirish shart emas. Siz o'zingizni ishingiz undagi imkoniyatlar qulayliklar shuning bilan birga farzandingiz uchun muvaffaqiyatli martaba haqida oldindan bashorat qilib gapirishingiz mumkin. Agar farzandingiz sizni yoki otasini kasbini davom ettirmoqchi bo'lsa bu juda yaxshi. Lekin majbur qilishning o'zi noto'g'ri.

Agar inson o'zi yoqtirmagan ishi bilan butun hayot davomida shug'ullangandan keyin o'zini baxtsizdek his qiladi. Shunday qilib fikrlarimiz asosida quyidagi xulosalarni keltirib o'tamiz: - oila a'zolaringiz va do'stlaringiz bilan maslahatlashilgan holda ularning fikriga ko'ra, siz tanlagan kasbingiz o'zingizga mos keladi; - ommaviy axborot vositalari yangi kasb sohalari haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi va maxsus manbalar (adabiyotlar internet va boshqalar) sizga jamiyatda ehtiyoji yuqori bo'lgan yo'nalishlar haqida ma'lumotlar beradi; - o'zingizni xohishingiz va hayotingizdagi ustanovkalaringizni esingizga oling; - olingan materiallarni har tomonlama ko'rib chiqing, yaxshilab tahlil qiling va o'zingizga "Hayotda menga nima kerak?" degan savolga javob berishga harakat qiling.

Kasb-hunarga tayyorlashning maqsadi o'quvchilarni kasb bo'yicha ijodiy fikrlaydigan, tashkilotchilik, tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash hamda ularning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kasb-hunar tanlashda ko'maklashishdan iborat. Ta'lim tizimida psixologik xizmatning tashkil etilishi tarbiyalanuvchi, o'quvchining individual - psixologik xususiyatlarini o'rganish bilan, shaxsning har tomonlama kamol topishi, uning ham ma'naviy, ham aqliy



rivojlanishi, o'zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ta'limiy - tarbiyaviy hamda ma'naviy - ruhiy sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: - psixologik ma'rifat va tashviqot; - psixologik profilaktika; - psixologik diagnostika; - psixologik korreksiya va rivojlantirish; - psixologik maslahatlar; - kasb-hunarga yo'naltirish.

Psixologik ma'rifat va tashviqot – ta'lim tizimining pedagogik jamoasini, o'quvchilarni va ota-onalarni psixologik bilimlarni egallashga jalb etish, ularning psixologik madaniyatini oshirish maqsadida turli mashg'ulotlar va ma'ruzalar uyushtirishdan iborat.

Psixologik profilaktika - pedagog va ota-onalarda farzandlarning har bir yosh davridagi psixik taraqqiyoti haqidagi psixologik bilimlarni egallash ehtiyojlarini tarkib toptirish bilan bola shaxsi va aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning o'z vaqtida oldini olishga qaratilgan psixologik tadbirlardir.

Psixologik diagnostika – o'quvchilarni psixologik jihatdan uzluksiz har tomonlama o'rganish, ularning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash, o'qish va xulq-atvoridagi nuqsonlarning sabablarini aniqlab berishga qaratilgan psixologik tadbirlardir.

Psixologik korreksiya va rivojlantirish - shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishida sodir bo'lgan salbiy burilish va nuqsonlarni, ruhiy zo'riqish va kechikishlarni bartaraf etish, shaxs va jamoaga faol ijobiy ruhiy ta'sir o'tkazish, ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish, shaxslararo munosabatlardagi ziddiyat va nizolarni yumshatish, har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini imkon qadar kuchliroq namoyon eta olishiga shart-sharoit yaratish.

Psixologik maslahatlar - pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilarga shaxsiy, kasbiy va hayotiy muammolarini hal etishga yordam berish, ularni o'z psixologik salomatligini muhofaza qilishga o'rgatish. Psixologik maslahat individual, guruhviy tarzda o'tkaziladi, profilaktik va korreksion xarakterga ega bo'ladi.

Kasb-hunarga yo'naltirish – o'quvchilarni layoqati, qiziqishi va qobiliyatlariga mos kasb-hunarga ongli tanlashga tayyorlash. Mazkur yo'nalishlarning uzviy va uzluksiz bog'liqligi psixologik xizmat mazmunining yaxlitligini ta'minlaydi. Yuqorida ko'rsatilgan barcha yo'nalishlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, natijada har bir o'quvchining egallamoqchi bo'lgan kasbini ongli tarzda, o'z qiziqishi va qobiliyati asosida to'g'ri tanlashiga yo'naltirilgan. O'quvchi o'z kelajagini to'g'ri tanlay olsagina, uning kasbiy va shaxsiy o'sishida muvaffaqiyatlar bo'lishi tabiiy. Bu borada o'quvchiga eng to'g'ri yo'lni ko'rsata olishda ham mutaxassis psixologlardan ehtiyotkorlik va



mas'ullik talab etiladi. Kasb etikasi qoidalari va tamoyillariga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 21.12.2022. xabar.uz.
2. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 avgustdagi 425-sonli Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022 y., 09/22/425/0712-son)
3. Abdullayeva R.M. REQUIREMENTS FOR CHOOSING A PROFESSION. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.269 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. 2150.



VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGINING PROFILAKTİKASIDA UMUMTA'LIM MAKTAB PSIXOLOGLARNING O'RNI

Jumayev Hamza Xasanovich

Navoiy viloyati Nurota tuman MMTBga qarashli

11-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya. Jamiyat hayotining turli sohalarida inson omili ustun hisoblanadi, ayniqsa, unda voyaga yetmaganlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning ilmiy, ijodiy, intellektual salohiyatini yuksaltirishga asosiy vazifalardan biri sifatida qaraladi. Maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi borasida umumta'lim maktablarining o'rni va ahamiyati o'rganib tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar, deviant xulqatvor, yakka tartibdagi profilaktika, maxsus profilaktika, nazoratsiz bola, bola rehabilitatsiyasi, ijtimoiy pedagog.

Davlatimiz yoshlar masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bugungi kunda aholining yoshlar qatlamiga oid islohotlarni to'la-to'kis amalga oshirib kelmoqda. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, yoshlarga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish kabi vazifalar bilan bir qatorda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish masalasi ham dolzarb vazifalar qatoridan joy oldi. Huquqbuzarliklarning oqibati bilan emas, balki uning kelib chiqishi sabablarini aniqlash profilaktika ishlarini olib borishning samaradorligini oshirishga asos bo'ladi. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi masalasi faqatgina bir tashkilot zimmasidagi vazifa bo'lib qolmasdan, bu yo'nalishda tizimli faoliyatni olib borish maqsadga muvofiq bo'lishi haqida

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev —Davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e'tibor qaratmayapti, deb ta'kidlagan. Shu bilan birgalikda, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar sonining ortishi, o'smirlar o'rtasida deviant xulqning ommalashuvi kabi holatlar huquqbuzarlik profilaktikasi masalasida jamiyatning barcha institutlari tizim sifatida o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishini taqozo etmoqda. Ushbu tizimning o'ziga xos subyekti sifatida umumta'lim maktablari jamiyatdagi asosiy ta'lim-tarbiya manbai bo'lib qolmay, huquqbuzarlik profilaktikasi vositasi ham



sanaladi. O‘zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan faoliyat huquqbuzarlik sodir etish havfi ostidagi voyaga yetmagan shaxslarni har tomonlama o‘rganish va amaliy yordam ko‘rsatishga imkon beradi.

2010-yil 29 sentabrda qabul qilingan —Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunning 2-bob 8-moddasiga ko‘ra —Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

- Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar;
- Ichki ishlar organlari;
- Ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim organlari;
- Vasiylik va homiylik organlari;
- Sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari;
- Mehnat organlaril, deb belgilangan. Yakka tartibdagi profilaktika ishi — ijtimoiy

jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiypedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyatdir.

Huquqbuzarlik sodir etgan yoki xulqiy og‘ishlari ijtimoiy havf ehtimolini yuzaga keltiradigan voyaga yetmaganlar umumta‘lim maktablarining ichki nazoratiga olinishi belgilangan. Bunday o‘quvchilar qatoriga ta‘lim muassasalaridagi mashg‘ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan va muntazam ravishda qatnashmayotgan o‘quvchilar, ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etganlar, notinch oila farzandlari, tarbiyasi og‘ir bolalar, ta‘lim muassasalariga o‘tkir tig‘li ta‘qiqlangan buyumlarni olib kelgan yoki olib kirishga uringan o‘quvchilar va ijtimoiy havfli hattiharakatlarni sodir etgan voyaga yetmaganlar kiradi. Umumta‘lim maktablarida yakka tartibda ishlashda huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli bo‘lgan yoki qayta sodir etish ehtimoli bo‘lgan bola barcha profilaktik tadbirlarning markazida bo‘ladi. O‘quvchilar bilan yakka tartibda profilaktik tadbirlarni olib boruvchi mas‘ul xodim sifatida sinf rahbari, yoshlar yetakchisi, maktab psixologi, tajribali o‘qituvchilardan bir nafari (zarur hollarda bir necha nafar) bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilar maktab ichki nazoratiga uch, olti, to‘qqiz oy va bir yil muddatga olinadi, ushbu muddat o‘quvchining xulqida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgunga qadar uzaytirilishi mumkin. Mas‘ul xodimlar bolaning davomati, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat qilish, u bilan suhbatlar o‘tkazish, bolaga turli sohada maslaxat va yordam berish, bolaning oilasi bilan muntazam aloqa qilish, bolani o‘zi qiziqqan to‘garakka biriktirish va boshqalarni amalga oshiradilar.



Профилактик тadbirlar jarayonida bolani profilaktikaning to'liq obyektiga aylantirmasdan, barcha jarayonlarda u bilan birgalikda ishtirok etish va profilaktika subyektlari (maktab, jamoat tashkilotlari, oila, davlat organlari, jamiyat) hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi bo'yicha umumta'lim maktablarida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi:

- Umumta'lim maktablarida psixologlarning malakasini muntazam oshirib borish va ular uchun ta'lim muassasasi hududida alohida xona ajratish.

- Maktab yoshlar yetakchilari shtatiga qo'shimcha ish o'rnini ajratish.

- Maktablardagi profilaktik ishlarga ijtimoiy ishchilarni jalb qilish. Bunda huquqbuzarlik sodir etish havfi ostidagi o'quvchi bilan birgalikda ularning oilasi bilan ishlash imkoniyati kengayadi.

- Umumta'lim maktablarida o'tiladigan huquq darslarida muammoli vaziyatlar-kazuslar ishlash amaliyotini kengaytirish. Bunda o'quvchilar nazariy bilimlar bilan birga amaliy tajribani uyg'unlashtirish imkoniga ega bo'lishadi.

- Maktab psixologi bilan birgalikda maktab ichki nazoratiga olingan o'quvchilarning qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash hamda ularni to'garaklarga, seminarlarga jalb qilish amaliyotini takomillashtirish.

O'quvchilarning genogramma va ekoxaritasini tuzishni yo'lga qo'yish. Bunda o'quvchilarning oila a'zolari va oila bilan aloqada bo'lgan tashkilotlar haqida yetarlicha ma'lumot olish imkoni yaratiladi.

